



Saidova Barno Narzullayevna,
Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrası
dotsent v.b., p.f.f.d (PhD)



Erkinova Dilyora Davron qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
BT 1-guruh talabasi

QADIMGI ZAMON AYOLLAR MAKTABLARIDAGI TA'LIM-TARBIYANING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o'rni, pedagogika tarixida xotin-qizlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida ilmiy asosga ega bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, bu ma'lumotlar tarixiy manbalarni hamda adabiyotlarni chuqur o'rganib, tahlil qilingan. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishini o'rganish va unda ayollarning tutgan o'rni, maqomi va albatta, ma'rifati darajasini aniqlash o'sha davrning madaniyati hamda ma'naviyati darajasini ham belgilashga zamin yaratadi.

Аннотация. Данная статья содержит научную информацию о месте женщины в обществе, роли и значении женщин в образовательном процессе в истории педагогики. Эти сведения были проанализированы путем углубленного изучения исторических источников и литературы. Определение места, статус и конечно же уровень просвещения женщин создает основу для определения уровня культуры и духовности того времени.

Annotation. This article contains scientific information about the place of women in society, the role and importance of women in the educational process in the history of pedagogy. This information was analyzed by in-depth study of historical sources and literature. Determining the place, status and certainly the level of enlightenment of women creates a basis for determining the level of culture and spirituality of that time.

Tayanch tushunchalar: *ijtimoiy tuzum, hurmat va ehtirom, huquq va erkinliklar, xotin-qizlar maqomi, siyosiy-iqtisodiy hayot, insoniyat tamadduni, milliy qadriyatlar, tarixiy manbalar, savodli odamlarning xo'jaligi, madaniyatli turmushi, adabiy va ilmiy asarlar.*

Ключевые слова: *общественный строй, уважение и честь, права и свободы, положение женщины, политическая и экономическая жизнь, человеческая цивилизация, национальные ценности, исторические источники, хозяйство грамотных людей, цивилизованная жизнь, литературные и научные произведения.*

Keywords: *social system, respect and honor, rights and freedoms, status of women, political and economic life, human civilization, national values, historical sources, economy of literate people, civilized life, literary and scientific works.*

Kirish. Insoniyat tarixining guvohlik berishicha, jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ming yillar davomida O'rta Osiyo hududida ayollar hurmat va e'zozda bo'lishgan bo'lsa-da, ammo turli obyektiv va subyektiv omillar bois o'tmish haqidagi ma'lumotlarni ifoda etadigan tarixiy manbalarda "Sharq ayoli o'tmishda qoloq hayot tarzi girdobida umr kechirgan", degan xulosalar o'rin olgan edi. Shunday tasavvurlarning ildiz otishiga sabab bo'lgan holatlardan biri o'zimizda haqiqiy manzarani tadqiq etishdagi hafsalasizlik hisoblanadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgacha uzoq asrlar davomida ayollarning jamiyatdagi o'rni yetarlicha o'rganilgani yo'q. Turli fan olimlari tomonidan tarixiy qo'lyozma asarlar, moddiy yodgorliklar va boshqa manbalar orqali bu muammoni tadqiq qilishlari bugungi rivojlanish bosqichining dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi qarori, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturi ham yurtimizda bu masalaning dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism. Mustaqillikni qo'lga kiritishimiz nafaqat erkinligimizni, balki tariximizni ham qayta tiklash va uni borligicha o'rganish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosimizni kelgusi avlodlarimizga taqdim etish imkoniyatini yaratib berdi. Bugungi kun tarixchi va pedagog olimlarimiz izlanishlar natijasida tarixda erkaklar singari xotin-qizlar ham sezilarli iz qoldirganini ilmiy asoslashga harakat qilmoqda, ularning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги ПҚ-5020-сонли "Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021 й.

***Sharq ayollarining
savodxonligi
va ma'lumoti
to'g'risidagi
axborotlar turli
xil manbalarda
tarqalgan, biroq
ularning aksariyati
tizimlashtirilmagan
holda uchraydi.***

ochilmagan qirralarini, o'rganilmagan jihatlarini ilmiy talqin etish bilan birgalikda ta'lim mazmuniga singdirish hamda ilmiy manbalarni o'rganish asosida darslik, qo'llanma va metodik tavsiyanomalar yaratishi zaruratga aylanmoqda.

Madaniyat va ma'rifat doirasida ayollarning ta'lim ko'rsatkichlarini tahlil qilish pedagogika tarixini yoritishda juda katta ahamiyatga molikdir. Zero, hozirgacha ayollar ta'limi rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab olgan yaxlit, keng qamrovli, fundamental tadqiqotlar mavjud emas. Qolaversa, qadimgi Sharq ayollari hayoti, ta'lim va tarbiyasining eng qadimiy bosqichlari haqida esa ma'lumot juda kam. Vaholonki, Sharq ayollari qadim zamonlardan boshlab ta'lim va tarbiya sohasida o'ziga xos an'analarga ega bo'lganliklariga taxminlar qilish uchun tarixiy ma'lumotlar, arxelogik topilmalar va boshqa birlamchi manbalar anchagina yig'ilgan. Ayollar ta'limi tarixining pedagogik jihatlarini umumiy pedagogikaning ajralmas qismi hisoblanib, O'rta Osiyo xalqlariga tegishli ma'lumotlari fan tomonidan hamon to'liq o'rganilmagan.

Mavjud manba va adabiyotlarda pedagogik hamda tarixiy yo'nalish tadqiqotchilari tomonidan masalaning ba'zi jihatlarini ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, alohida mavzu sifatida o'rganish obyektiga aylantirilmagan. Ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarning aksariyati shu paytgacha ayollar ta'lim jarayonining erkaklarnikidan tubdan farq qiladigan xususiyatlarini aniq tavsiflamay turib, umuman, u yoki bu ta'lim yo'nalishini o'rganishga to'xtalib o'tishgan. Sharq ayollarining savodxonligi va ma'lumoti to'g'risidagi axborotlar turli xil manbalarda tarqalgan, biroq ularning aksariyati tizimlashtirilmagan holda uchraydi.

Bugungi zamon rivojlanish manzarasiga nazar tashlansa, unda, albatta, o'tmish tajribasi, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros saboqlari, albatta, o'zining o'rniga ega ekanligini ko'rish mumkin. Shu ma'noda bugungi ta'limning o'tmishdagi mazmun-mohiyati, jamiyat hayotidagi o'rni va eng muhimi qadim zamonlarda ayollar ta'limiga bo'lgan e'tibor, ehtiyoj qanday ekanligi, ilm doirasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

“Avesto” zamonida din ta'limining motivatsion manbayi bo'lib, qat'iy qoidalarga rioya qilish hamda marosimlarni bajarishni talab qilar edi. Natijada inson o'zining axloqiy amal va harakatlarini tartibga solishi zarur edi, ya'ni o'z-o'zini tarbiyalashi, ro'zg'or yurgizish uchun kunlar va haftalarni bilishi, odamlar sonini, chorva mollarini va boshqalarni sanashni, shuningdek, o'zining diniy tasavvurlari hamda g'oyalarini yozish va chizish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim edi².

² Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – Москва: «Наука», 1980. – 416 б.

Qadimgi zamon maktabidagi asosiy mavzu ilohiyot bo'lgan va bu fanni o'qitishda yozuv muhim rol o'ynar edi. Qadimgi dunyoning oxirgi davrlarida Zaratushtidan kelgan barcha ko'rsatmalar allaqachon bambuk qog'ozga yozilgan va kitoblarga aylantirilgan bo'lgan. Kattaroq yoshdagilarga bugungi tasnifdagi ritorika, matematika, geografiya, astronomiya va tibbiyot kabi mavzular o'qitilardi. Mavjud bo'lgan barcha fanlardan qizlar tibbiyotni o'rganishga ko'proq intilishgan. Keyingi davrlarda evristik suhbatlar hamda bahs-munozaralar maktab va maktabdagi o'qitishning asosiy uslubiga aylangan.

Sosoniylar davrida ritorika, mantiq, falsafa, adabiyot va boshqa ko'plab fanlarni mukammal biladigan o'qituvchilar ko'p bo'lgan. Eng yaxshi o'qituvchilar ko'pincha qirol maktablarida o'qitilgan va hukmdorning o'zi tomonidan tayinlangan. Ushbu fanlarni biladigan ayol o'qituvchilari oddiy maktablarda ham o'qitilgan.

Tarixiy yozma manbalarga ko'ra, birinchi marta alfasayisal yozuv, ya'ni ovoqli harflar tizimi neolit davrida paydo bo'lgani va O'rta Osiyo xalqlarining ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga yo'l ochganini aniqlash mumkin. Aqliy mehnatning o'sib borayotgan roli haqida Sharq xalqlari qadimiy madaniyatining eng qimmatli manbalaridan sanalmish ko'plab mixxat yozuvlari dalolat beradi. Daraxtlar, bambuk, hayvon terilari, toshlar, planshetlar, papiruslar, tuproq idishlari va plastinkalarda yozuvlar yozilgan. Ahamoniy yozuvlari turli xil narsalarda – metall idishlar, toshlar, vazalar, savdo yo'llari, qabrlar, qurol-yaroq, saroy devorlari va ustunlari, jun va ipak matolardan topilgan, hatto quruvchilar tomonidan saroylar poydevori ostiga qo'yilgan.

O'rta Osiyo hududida topilgan Xorazmning Qo'yqirilgan qal'asining eng qadimgi oromiy yozuvlari miloddan avvalgi IV-III asrlarga tegishli. Olimlar Parfiyaning Nisodagi xuddi shunday yozuvlarni miloddan avvalgi I asrga tegishli deb hisoblashgan³.

Arxeolog olimlarning taxminiga ko'ra, qadimgi Panjikent qal'asidan topilgan sug'd alifbosidagi harflar bilan butun xum va uning qismlariga siyoh bilan yozilgan arxeologik topilma VII asrning oxiri yoki VIII asrning birinchi yarmiga tegishli bo'lgan. Sug'diy alifbosi oromiy tiliga o'xshash bo'lib, 23 harfdan iborat edi. Xuddi shunday yana bir tarixiy manbaga ko'ra, vatanidan, ya'ni qadimgi Sug'ddan uzoqda yashovchi samarqandlik bir qizning o'z onasiga yozgan maktubidan anglash mumkinki, qadimgi davrlarda qizlar o'qish va yozishni ham bilishgan.

Qadimgi Sug'ddan uzoqda yashovchi samarqandlik bir qizning o'z onasiga yozgan maktubidan anglash mumkinki, qadimgi davrlarda qizlar o'qish va yozishni ham bilishgan.

³ Махди Икболий Занон дар ториhi куҳани Ирон. Махдиобод, Пардисон, 2004. –66 б.

***Qadimgi davrlarda
ta'lim-tarbiyaning
asosini folklor
janri tashkil
etgan. Folklor
yaratilishida faol
ishtirok etgan
ayol-onalar
tufayli ko'proq
farzandlarning
tarannumiga
bag'ishlab
misralar yozilgan.
Bolajonlarga
bag'ishlangan
she'rlar, ertaklar,
afsonalar va
qissadan iborat
adabiy xazina eng
kichkina yoshdagi
bolalarning ta'lim-
tarbiya maktabi
edi.***

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan O'rta Osiyodagi oromiy va sug'd alifbosining dastlabki arxeologik topilmalarining dalolat berishicha, O'rta Osiyoda yozuvlar ish yuritish hamda kundalik hayotda juda keng foydalanilgan. O'rta Osiyoda yashagan barcha xalqlarning yozma adabiyoti keng tarqalgan bo'lib, ular, asosan, diniy xususiyatga ega bo'lgan hamda ularda ilohiy afsonalar ko'rinishida xalq hikmatlarini o'zida mujassam etish ohanglari ustunlik qilgan.

Barcha davr va zamonlarda har qanday ta'lim beshiklar qo'shig'i yoki qofiyali she'rlaridan boshlangan. Beshik ustida o'tirgan ona farzandida kelajakdagi baxtli odamni ko'rishni orzu qiladi. U orzu va umidlarini ertak qo'shiqlariga aylantiradi. Bunday qo'shiqlar bolalar tomonidan tez va oson qabul qilinadi. Bolalar yoshligidan o'zlarini qahramonlar, shoirlar, dengizchilar, shahzodalar yoki aqlli va maftunkor pari, mohir hunarmand, odamlarni aqli va iste'dodi bilan hayratga soladigan shoira va boshqalar sifatida ko'rib, shu ruhda tarbiyalanadilar. Bunday qo'shiqlarni O'rta Osiyo xalqlari "Alla" deb atashadi, ya'ni "go'dakni uxlatishda yakkaxon usulida aytiladigan qo'shiq". Deyarli har bir onaning o'zi tarbiyalangan, onaning qo'shig'idan ilhomlangan va o'z navbatida, aqlli onasi yoki buvisiga taqlid qilib, bolalarini tarbiyalaydi.

Qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaning asosini folklor janri tashkil etgan. Folklor yaratilishida faol ishtirok etgan ayol-onalar tufayli ko'proq farzandlarning tarannumiga bag'ishlab misralar yozilgan. Bolajonlarga bag'ishlangan she'rlar, ertaklar, afsonalar va qissadan iborat adabiy xazina eng kichkina yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya maktabi edi. Ko'pincha ertaklarda bolalarni uzoq safarlarga olib boradigan, yaxshilik har doim yovuzlik ustidan g'alaba qozonadigan voqealar aytilgan. Bolalar uchun barcha kichik hikoyalar yoki ertaklar "Bor ekan, yo'q ekan" so'zlari bilan boshlangan. Keyingina hikoya yoki ertakning syujeti aytilgan. Shu o'rinda, qadimgi O'rta Osiyoning forsiyzabon xalqlarida qadimgi davrlardan adabiyotga va ayniqsa, she'riyatga moyillik rivojlangani ko'p manbalarda ta'kidlanadi. Shu sababli ko'plab ertaklarda, hatto qofiya ham bo'lgan va ular xalq tomonidan qisqa doston-afsonalar shaklida ham yozilgan.

Ota-onalarga, urug' oqsoqollariga, donishmandlarga, hukmdorlarga hurmat, shuningdek, ularning ko'rsatmalarini bajarish qadimgi davrlardan nafaqat bolalar, balki kattalar tarbiyasi uchun ham asos bo'lib kelgan. Mazmunan bu tarbiya odamlarni, avvalo, axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, ularga hayotdan dono maslahatlar beradi, bu yerda haqiqat, bilim va kattalarga hurmat birinchi o'ringa chiqadi.

Ba'zi manbalarga ko'ra, ayollar yozishdan foydalanish bo'yicha erkaklardan faolroq bo'lgan. Masalan, eri bilan safarda bo'lgan bir qizning onasiga yozgan maktub va yozishmalari orqali ayollar ham erkaklar kabi o'qish va yozishni bilganliklari haqidagi ushbu taxminning tasdig'ini topsak bo'ladi.

Qadimgi Sharqning ko'p tarixiy va adabiy manbalarida o'zlarini fan va adabiyotga bag'ishlagan ayollarning ismlari ham saqlanib qolgan. Masalan, Eron shohi Kaykubodning Purin ismli qizi "Avesto"ning mingdan ziyod sahifalarini to'plab, pahlaviy tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'lgan, zamonasining eng o'qimishli ayollardan biri bo'lgan⁴. Faruxru ismli yana bir ayol o'zining aql-zakovati va ilm-fan sohasidagi intellektual qobiliyatlari bilan qirol saroyida xizmat qilish sharafiga erishgan va birinchi ayol-vazir ayollardan edi⁵.

Qadimgi davrlar tarixini obyektiv o'rganish asosida Sharq ayollarining ta'lim dasturi xilma-xil va qiziqarli bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Sharqning asosiy urf-odati va yaxshi tarbiya atributi hisoblangan uy ishlarini olib borish, bolalarni tarbiyalash va keksa oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish bilan bir qatorda, ayollar ovga chiqib, uylarini dushman hujumlaridan himoya qilganlar va bular barchasi jismoniy chiniqishni talab qilgan. Yosh qizlar tikishni, rasm chizishni, sanashni bilar, shuningdek, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirar, musiqa asboblari chalib, qo'shiq aytardilar.

Mavjud manbalarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyodagi eng qadimgi ayollarning kasb maktablari haqidagi ma'lumotlar e'tiborga sazovor. Qadimgi davrlarda kasbiy mahorat maktablari turli yo'nalishlarga ega edi. Xususan, badiiy hunarmandchilik va badiiy tasvir maktablari asosiy rol o'ynagan.

Arxelogik izlanishlar natijasida Sharqiy Pomirning baland tog'laridan Oshxona va Qoratumshuq deb nomlangan qadimiy odamlar yashaydigan maskanlar ochilgan. Dengiz chuqurligidan 4200 metr balandlikda joylashgan Shaxta g'orida O'rta Osiyo tarixidagi eng qadimiy deb hisoblanishi mumkin bo'lgan toshga ishlangan rasmlar topilgan. Ularda hayvonlarning tosh rasmlari hayvonlarning yog'i bilan aralashtirilgan tabiiy to'q qizil rang bilan ishlangan. Ikki rangga bo'yalgan qushlar, yovvoyi cho'chqalar va ayiqlarning qiyofasiga kirgan odamlarning qoyatosh rasmlari o'sha davr xalqlarining dastlabki san'atidan dalolat beradi.

Faruxru ismli yana bir ayol o'zining aql-zakovati va ilm-fan sohasidagi intellektual qobiliyatlari bilan qirol saroyida xizmat qilish sharafiga erishgan va birinchi ayol-vazir ayollardan edi.

⁴ Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – Санкт-Петербург, 2008. – 414 б.

⁵ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. Москва: «Наука», 1970. – 288 б.

Ayollarning o'z zamonasidagi ta'lim jarayoniga ta'siri, ishtiroki va undan bahramand bo'lishining ehtimoli qadimda ham yuqori bo'lgan. Masalan, ayollar, erkaklar bilan birga ahamoniylar gil yozuvlarini yozishda qatnashib, u orqali hatto pul topar edilar. Shuningdek, ular tosh yozuvlari va tasvirlarini erkaklar bilan birga silliqlashda qatnashgan.

Ayollarning o'z zamonasidagi ta'lim jarayoniga ta'siri, ishtiroki va undan bahramand bo'lishining ehtimoli qadimda ham yuqori bo'lgan. Masalan, ayollar, erkaklar bilan birga ahamoniylar gil yozuvlarini yozishda qatnashib, u orqali hatto pul topar edilar. Shuningdek, ular tosh yozuvlari va tasvirlarini erkaklar bilan birga silliqlashda qatnashgan.

Odatda 10 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan qizlar o'z oilalari bilan, keyin esa kasb-hunar maktablarida iplar tikish, kashta tikish, yigirish, bo'yash va matolarga naqsh solish, jun va novdalardan turli buyumlar yasashni o'rganganlar. Ushbu maktablar ayollar va qizlarga o'zlarining ijodiy g'oyalarini amalga oshirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratardi. 1964-yilda qadimiy Panjakentda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar paytida devorlarning birida uzun naqshli libos kiygan ayol qiyofasi tasvirlangan rasm topilgan. Uning tor beli oltin belbog' bilan bog'langan.

Ushbu rasm nafaqat badiiy asar, balki qadimgi ayollarning yuksak professional san'ati, go'zallik va nafislikning oliy darajadagi namunasi darak beradi. Kesish, tikish va kashtachilik, zamonaviy liboslar yaratish borasida ayollarga ta'lim berishning o'zi yuqori darajadagi ijodiy yondashuv va muayyan ko'nikmalarni talab etishi ayni haqiqat edi. Demak, bichish-tikish, kashtachilik va har xil turdagi kiyimlarni bezash maktabida ta'lim yaxshi yo'lga qo'yilganini taxmin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Azaldan O'rta Osiyo hududi paxta va paxtadan tikilgan kiyimlarni ishlab chiqarishda imtiyozga ega edi. V–VI asrlarda qadimgi Parfiya va Sug'ddan paxta mahsulotlari Xitoyga eksport qilingan. Professional hunarmandlar o'zlarining usullari bilan eng zo'r paxta iplaridan to'qilgan matolarni yasardilar. Ko'p rangli matolardan ayollar issiq ustki kiyimlar, ayollar ko'ylaklari, erkaklar ko'ylaklari, kaftan, shim va haram shimlarini tikar edilar. To'quvchilik ustalari o'zlarining san'atlarini avloddan avlodga yetkazish orqali erkaklarga ip ishlab chiqarish texnikasini, ayollarga tikuvchilikni o'rgatishar edi.

Jundan kigiz gilam va gilamchalar yasalgan. Kigiz maktabiga ayollar qatorida erkaklar ham jalb qilingan. Pomir paypoqlari, Baqtriya va Parfiyaning jun liboslari, Xorazm telpaklari, Sug'diylarning boshlik, etik va kandizalari ko'plab karvonlar orqali butun dunyoga tarqatilgan. Jun va matolarni tayyorlash mahoratiga o'rgatadigan maktab o'zining soddaligi bilan ko'proq ayollarni jalb qilgan edi. Jun iplardan to'qish va ularni rang-barang naqshlar bilan bezash baland tog'larda eng sevimli mashg'ulot edi. Kigizdan tayyorlangan buyumlar O'rta Osiyo xalqlarining dasht uylari va

tog'dagi kulbalariga qulaylik hamda iliqlik bag'ishlar edi. Uyda o'tirgan hunarmand ayollar ko'pincha o'z farzandlari uchun issiq kiyimlar, bosh kiyimlar va jun poyabzal tikar edilar. Charm kiyim va chodirlarni tikish ham ayollarga ishonib topshirilgan. Yonma-yon ishlagan ayol va erkaklar ishlariga teng ravishda mukofot olganlar.

Arxeologik va yozma materiallarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, antik davrda professional ustaxonalar va musiqa maktablari keng tarqalgan. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ko'plab ayollar she'r yodlagan va qo'shiqlar yaratgan.

Demak, qadimgi zamonlardan ayol – ona oilaviy tarbiya, oilaviy ta'lim asosida farzandlariga avvallari folklor asarlari – ertaklar, she'rlar va chistonlar orqali ma'naviy bilim berib keldi. Keyinchalik yozuv paydo bo'lishi bilan birinchi adabiy asarlar paydo bo'ldi, ularning yaratilishida ayollar ham erkaklar bilan shug'ullanishdi. Tadrijiy ravishda kasbiy mahorat, jismoniy tarbiya, san'at va musiqa qadimgi Sharq maktablarida ta'limning asosiy yo'nalishlariga aylanib bordi. Din va diniy ta'limot haqidagi bilimlar va fanlar Sharq xalqlarining dunyoqarashini, ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Shu tariqa, ta'lim jarayoni doirasida axloqiy tarbiya zaruriy, hayotiy xarakterga ega bo'ldi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qadimgi zamonda umumiy ta'lim, jumladan, ayollar ta'limi, qizlarning ta'limdagi qamrovi, ehtimol, ommaviy bo'lmagan, barchada bunday ikmoniyatdan foydalanish sharoiti bo'lmagan, ammo bu umuman bo'lmagan degan ma'noni anglatmaydi. Ayollar zimmasiga yuklanadigan barcha tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan amallar aynan, tizimli pedagogik munosabatlar ifodasi bo'lsa-da, ammo tizimli o'rganilmaganligicha qolib ketgan. Binobarin, tarixning ma'lum davrlarida Sharq, jumladan, O'rta Osiyo ayollari savodsiz, faqat uyda o'tirganlar, degan ilmiy farazlar ilgari surilgan va o'ylaymizki, ular g'arazli maqsadlar yo'lidagi uydirmalardan boshqa narsa emas edi⁶.

O'rta Osiyoda ayollar ta'lim-tarbiyasining islomgacha bo'lgan davrining umumiy manzarasi tahlil etilgach, ayollar ta'lim va tarbiyasining masalasi islom dini kirib kelishi va jarayonga ta'sir ko'rsatishi holati mavjud manbalar va farazlar asosida alohida ko'rib chiqiladi⁷.

Tarixning ma'lum davrlarida Sharq, jumladan, O'rta Osiyo ayollari savodsiz, faqat uyda o'tirganlar, degan ilmiy farazlar ilgari surilgan va o'ylaymizki, ular g'arazli maqsadlar yo'lidagi uydirmalardan boshqa narsa emas edi.

⁶ Саидова Б.Н. Аёллар таълимини қўллаб-қувватлашда маърифатпарвар аёллар ўрни // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1 (98). – С. 12-17.

⁷ Saidova B.N. The role of women educators in supporting women's education // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1. – С. 12-17.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги ПҚ-3808-сонли “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2018 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги ПҚ-5020-сонли “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2021 й.
3. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: «Наука», 1980. – 416 б.
4. Маҳди Иқболий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. – 66 б.
5. Ходжаева Н. Статус женицы Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.
6. Ливиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб., 2008. – 414 б.
7. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б.
8. Саидова Б.Н. Аёллар таълимини қўллаб-қувватлашда маърифатпарвар аёллар ўрни // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1 (98). – С. 12-17.
9. Saidova B.N. The role of women educators in supporting women's education // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 1. – С. 12-17.
10. Narzullayevna S.B. The Influence of Islam on the Formation of Womens Education System in the Middle Ages //JournalNX. – С. 204-206.